

BUYUK NEMIS ADIBI I.V.GYOTENING “G’ARBU-SHARQ DEVONI”DA AMIR TEMUR SIYMOSI

D. Sherova ¹, Z. Хамидова ²

Annotatsiya:

Sharq madaniyatiga mehr qo'yib Hofiz Sheroziyni o'ziga ustoz bilgan, uning g'azallariga naziralar bitib, “G'arbu-sharq devoni” ni yaratgan nemis adibi I.V.Gyote ushbu devonning 7-faslini Sohibqiron Amir Temur nomi bilan ataydi. Maqolamizda shu fasl va g'arb allomalarining bobomiz Amir Temur shaxsi va faoliyati haqidagi fikr mulohazalari haqida fikr yuritamiz. Gyote o'zining yetmish yoshida, ya'nikim 1819-yilda ilk bor “G'arbu-Sharq devoni” da to'plangan she'riy merosni, ayniqsa, avvalgi she'riy uslubiga o'xshamagan, balki yangicha yaratilgan she'rlarni qog'ozga tushirishga muvaffaq bo'lishi ijodiy voqea edi. 14-asr fors shoiri Hofiz Sheroziy o'z she'rlari bilan Gyotening ayni shu hayot faslida shunaqa ijodga undagandiki, uning she'riyati o'zining ifoda uslubi va mavzui bilan o'z fikrlarini ifodalashga turtki bo'lgan vosita va his-tuyg'ularni o'yg'ota olgan. Ma'naviyatning hissiy aniqligi va nozik ta'siri, hayotiy dunyoqarashning uxshashligi, va shu bilan birga ikki dunyo, ikki din, ikki madaniyat kishilarini birlashtira olgan his-to'yg'ular mujassamligi, aniqrog'i ehtimol Ilohiy birlik, yuksak oshuftalik mavjud edi.

Kalit so'zlar: adabiy ta'sir, adabiy aloqa, motiv, sharq va g'arb, Sohibqiron, devon, hukmdor

doi: <https://doi.org/10.2024/f6nfyc39>

Gyote o'zidan 400 yil avval yashab ijod etgan Hofiz Sheroziyni “Birodarim” deb atagan edi va uilhom qanotida xayolan sharqqa sayohat qiladi.

Buyuk adib Hofiz haqida shunday yozadi:

Und mag die ganze Welt versinken,
Hafis mit dir, mit dir allein
Will ich wetteifern! Lust und Pein
Sei uns, den Zwillingen, gemein!
Wie du zu lieben und zu trinken,
Das soll mein Stolz, mein Leben sein.¹

Darhaqiqat, bu ikki buyuk qalam sohiblarining uchrashuvi vaqt tufayli imkonsiz esada ular bir birlarining tilini bilmasada, boshqacha turmush tarzi, boshqacha ijtimoiy hayotda yashagan bo'lsalarda u Hofiz she'rlarining murakkabligini tushuna oladi va ularning yorqinligini tan olgan birinchi nemis shoiridir. Hofiz shariatiga oshufta Gyote shunchalik ishtiyoqmand ediki, uni hatto Germaniyada maqtovg'a sazovor bo'lgan o'zining darajasiga ko'targisi keladi va qidirganini, aytmoqchi bo'lganini Hofiz she'rlarida kashf etib uni “egizagim” deb ataydi.²

¹ *Dilfuza Sherova Boltayevna, SamDChTI, “Nemis tili va adabiyoti” Kafedrasida katta o'qituvchisi*

² *Хамидова Зульфия Толибовна, к.п.н., филологический факультет Казахский Национальный университет имени аль-Фараби*

Ushbu maqolamizda, G'arbu – Sharq devoniga kirgan “Temur kitobi” ga batafsilroq to'xtalib o'tmoqchimiz. “Temur kitobi” ikkita alohida mustaqil she'rga ega bo'lsada, lekin ayni paytda umumiyning bir qismi sifatida qaraladi. “Temur kitobi” devonning ko'zga tashlanmaydigan qismi – quvnoq, mulohazakor va yoqimli baytlar qatorida o'quvchiga biroz g'alati va shavqatsiz bo'lib tuyulishi mumkin, lekin u muhim maqsadga xizmat qiladi. Umumiy ishining maqsadi alohida she'rning go'zalligini, shuningdek umumiy tushunchaga qo'shgan muhim hissasidir.

G'arbda, jumladan Germaniya sharqshunosligida sohibqiron Amir Temurning tarixiy me'rosi o'rganilgan. Amir Temur va Temuriylar me'rosini Germaniyada I.V.Gyote, F.Shlosser, G.Veber, I.Dagonkort, X.V.Remir, K.Tanger, G.Naggel, K.Barlos, G.Lang, I.Baldauf kabi taniqli ilmiy tadqiqotchilar o'rganishgan.

Shohibqiron shaxsiga quyidagi nemis mualliflari yuksak baho berishgan.

Jumladan, F. Schlosser (1776-1864) “Umumjahon tarixi” (1876) kitobida yozadiki: “Omadli jangchi, dunyoning yagona hukmdori, taktik va strategik bilimlarni uyg'unlashtirgan zot”³, va G.Veber “Umumiy tarix” (1887) kitobida Sohibqironga quyidagicha ta'rif bergan: “Buyuk sarkarda, va qonunshunos Amir Temur inson sifatida ham, hukmdor sifatida ham Boyaziddan ustun turar edi.”⁴

Amir Temurning buyukligi shunda ediki, u butun yer yuzida yashaydigan barcha xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirib, har taraflama rivojlantirib, odam zotning farovon yashashini o'ziga oliy maqsad qilgan. Hukmdorlar orasida yagona dunyoni yaxlit bir vujud, bus-butun organism ekanini tasavvur qila olgan sohibqiron edi. Yevropa qirollari, hukmdorlari, buyuk adiblari uni chindan ham jahonshumul hukmdor ekanligini tan olishgan. A.Temur suroni bir davrda dunyo hukmdorlariga omonlik tilagan, tijoratni yo'lga qo'yishni taklif qilib adolat tug'ini mahkam tutgan donishmand edi. A.Temurga bo'lgan qiziqish olti asrdiki zarracha kamaymadi, u haqda hamma tillarda yangidan yangi kitoblar, dostonlar, devonlar yozilaverdi, kinofilmlar yaratilaverdi.

Uning ohanrabosi shunda ediki, u avvalo adolatni ilgari surdi, Ona Vatanini jondan suydi, uning fidosi bo'ldi. Davlat ishlarini to'qqiz ulushini kengashga va faqat bir ulushini qilichga qoldirdi. Jangu jadallarda oldinda ot surdi. Qayerniki zabt etmasin u yerni obod etdi, ezgulik istadi va o'z odamini qo'ymadi, balki o'z egalariga topshirdi. Buyuk jahongirlik rutbasiga erishgan bo'lsada, yovuz dushmanlarinida kechira oldi. Dunyoning ma'nosi ezgulikda deb bilgani uchun ham uning amali Allohga ham, bandasiga ham ma'qul keldi.

Gyote shoir, dramaturg, adabiyotshunos, huquqshunos, sharqshunos, tarixchi, faylasuf, rassom, teatrshunos va tabiiy fanlardan, biologiya mineralogiya bo'yicha kashfiyotlar olib borgan, shu bilan birga davlat arbobi o'zining sharqona ruhiyatga yo'g'rilgan “G'arbu Sharq” devonida A.Temur shaxsiyatiga alohida e'tibor qaratib 12 ta faslning yettinchisini “Temur kitobi. Temurnoma” deb nomlaydi.

G'arb adabiyotiga Sharq ohanglarini olib kirib, Sharq olamini jonlantirgan ijodkor I.V.Gyotedir. Allomaning “G'arbu-sharq” devoni 1814-1820 yillarda yozilgan bo'lib, birinchi nashri 1820 yilda, ikkinchi qayta to'ldirilgan nashri 1827-yilda chop etilgan. Bu asarni H.Hayne G'arbning Sharqqa salomi⁵, I. Braginskiy esa Sharqu G'arbni uyg'unlashtirgan asar deb baholashgan edi⁶.

Gesteh's! Die Dichter des Orients
Sind grösser als wir des Occidents
Worin wir sie aber völlig erreichen
Das ist im Hass auf unseres Gleichen⁷
Iqror bo'li! Sharq shoiri
ustunroq biz G'arbliklardan
Qo'lga kiritganlarimizdan

Faqat o'xshashmiz nafratda [Sherova D.]

Mazkur bobda "Qish va Temur" hamda "Zulayho" she'rlari mavjud. Devonning 6-bobida Sohibqiron tilidan aytilgan to'rtlik ham keltirilgan.

Was? Ihr missbilliget den kräftigen Sturm

Des Übermuths, verlogne Pfaffen!

Hätt 'Allah mich bestimmt zum Wurm,

So hätte er mich als Wurm geschaffen. 8

Kibr-u havo xurujimi bu?

Yolg'onga band siz, ahlitaqvo!

Bilmaysiz, qurt bo'lardim, yohu!

Yaratsa gar qurt etib Alloh.9

Mazkur devonning adabiy koloriti albatta yaxlit devonning jozibadorligi bilan uyg'unlashtirib tadqiq qilinishi maqsadga muvofiqdir.

"Temur kitobi" da muallif Amir Temurning Xitoyga bo'lgan harbiy yurishi paytida „Qish“ bilan uchrashuvini aks ettiradi. Devonda qish obrazi shaxslantiriladi. U o'zining haybatli bo'ronlari, sovuq shamollari va azobli ayozlari bilan tosh va qumlararo Temur va uning yengilmas qo'shinlariga peshvoz chiqib shunday deydi

Leise, langsam, Unglücksseiger,

Wandle, du Tyrann des Unrechts;

Sollen länger noch die Herzen

Sengen, brennen deinen Flammen?

Bist du der verdammten Geister

Einer, wohl! ich bin der andre.10

„Noten und Abhandlungen“ asarining „Künftiger Divan“ bobida "Temur kitobining" qisqaligiga quyidagicha izoh berilgan, "Darhaqiqat "Temur kitobi" bepoyon dunyo voqealarini aniq talqin etish va anglashimiz uchun yillar o'tishi kerakdir." Shunga ko'ra aslida Gyote nazarida kitob hali tugallanmagan. „Qish va Temur“ she'rida aslida bir- biriga teng bo'lib ko'ringan g'ayriinsoniy kuchlarning bahsini tinglagandekmiz go'yo. Zero, qish o'zining „Ayozi shamoli va dahshatli bo'ronlari“ bilan hukmronlik qilsa, Temurning harbiy yurishi ham kishilarni dahshatga soladi.

Bunda Gyote Amir Temurga ham tabiat bilan bir xil kuch va sifat berib, uni inson mavqeidan yuksaklikka ko'taradi.

Adibning shunday noaniq uslubiyati bir tomondan chet el hukmronligiga tanqidiy yondoshgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin Temurning hukmronligiga qoyil qoladi, negaki asarda Sohibqironning shavqatsizligi hech qanday bo'yoqsiz yoritib berilsada, oxir oqibat u o'zini tabiat kuchi bilan tenghis qila oldi, buyerda qish Temur bilan suhbatdan oldin shamollar va bo'ronlari bilan o'zining g'azabini namoyon etadi, ya'niki shamol va bo'ron qishning quroli bo'lib xizmat qiladi.

Muallifning:

Bist du der Verdammten Geister

Einer, Wohl! ich bin der andre

Du bist Greis, ich auch, erstarren

Machen wir so Land als Menschen

Mars! Du bist's! Ich bin Saturnus,

Übelthätige Gestirne,

Um Verein die Schrecklichsten12

Misralaridan ham ko'rish mumkinki qish o'zini Saturn va Temurni marsga qiyoslaydi, bu ikkiy ulduz turkumlari rimliklarning urush xudolari sifatida talqin qilinadi. Bu bilan Qish

Temurni xudolar saltanatiga ko'targandek, ammo keyingi misralarda Temurga „qarshi hujum“ boshlaydi,

Todtest du die Seele, Kältest
Du den Luffreis; meine Lüfte
Sind noch kälter, als du sein kannst¹³

Asarda Temurning omon qolishi imkoniyati yo'q bo'lsada, ammo qish uni taqdir izmiga topshirmaydi, uning ustunligini yana bir bor ta'kidlab, nafaqat sovuq, balki olov ham Temurning qulashini to'xtata olmaydi deydi:

Nicht, o Greis, vertheid'gen soll dich
Breite Kohlenglut vom Herde,
Keine Flamme des Dezembers.¹⁴

Hoy qariya, o'zingni himoya qilishga o'rinma, na o'chog'da gicho'g', na dekabr alangasi seni qutqara olmas (D.Sherova).

Darhaqiqat Gyote nafaqat asarlarida, balki o'z hayotida ham Sharqona motivlardan ruhlangan, kamolot sari intilgan bir inson edi. Uning asarlari har ikkala qutb uchun nihoyatda yuksak ahamiyatga molik bo'lib, Sharqu-G'arb uchun adabiy ko'priq, Sharqning buyuk kishilariga e'tirof, do'stlik, mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlovchi vosita sifatida jahon adabiyotining noyob durdonasi bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Beutler, Ernst (Hrsg.) Goethe. West-östlicher Divan. Bremen 1956. Buch des Timur: S. 546-558
- [2]. Burdach, Konrad. Die Kunst und der dichterisch-religiöse Gehalt des West-östlichen Divan (1905) In: Lohner, Edgar. Studien zum West-östlichen Divan Goethes. Darmstadt 1971. S.48-91
- [3]. Goethe. Wörterbuch: Geschäft-Grund. Bd.4, Lief.1-4
- [4]. Heinrich Heine and the Occident: Multiple Identities, Multiple Receptions, ed. by Peter Uwe Hohendahl and Sander L. Gilman (Lincoln; University of Nebraska Press, 1991)
- [5]. Dill, Christa. Wörterbuch zu Goethes West-östlichem Divan. Tübingen 1987
- [6]. Eckermann, Johann Peter. Gespräche mit Goethe in den letzten Jahren seines Lebens. Hrsg. von Regine Otto. Berlin/Weimar 1982
- [7]. Ihekweazu, Edith. Goethes West-östlicher Divan- Untersuchungen zur Struktur des lyrischen Zyklus. Hamburg 1971
- [8]. Kayser, Wolfgang. Kleine deutsche Verslehre. München 1978
- [9]. Kayser, Wolfgang. Beobachtungen zur Verskunst des West-östlichen Divans. In: Kayser, Wolfgang. Kunst und Spiel- Fünf Goethe-Studien. Göttingen 1961. S.47-63
- [10]. Krippendorff, Ekkehart. Wie die Großen mit den Menschen spielen-Goethes Politik. Frankfurt/Main 1988
- [11]. Lentz, Wolfgang. Goethes Divan und die Hafisforschung (1958) In: Lohner, Edgar. Studien zum West-östlichen Divan Goethes. Darmstadt 1971. S.190- 220
- [12]. Michelsen, Peter. Goethes Gedicht „Der Winter und Timur“ und seine Vorlagen. In: Floeck, W./ Steland, D./ Turk, H. (Hrsg.) Formen literarischer Rezeption. Wiesbaden 1987. S. 445-458
- [13]. Müller, Joachim. Zu Goethes Timurgedicht. In: Müller, Joachim. Der Augenblick ist die Ewigkeit. Leipzig 1960. S. 165-186
- [14]. Weber G.: Allgemeine Weltgeschichte. Leipzig, Verlag von Wilhelm Engelmann, 1889